

SUN'IY TILLAR-FAN VA TEXNIKA TILI

ИСКУССТВЕННЫЕ ЯЗЫКИ — ЯЗЫК НАУКИ И ТЕХНИКИ

ARTIFICIAL LANGUAGES - THE LANGUAGE OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

Abdullaev U.S.

Andijon mashinasozlik instituti “Gumanitar fanlar” kafedrasi professori, Andijon shahri, O‘zbekiston.

Turgunova Tursunoy Maratovna

Andijon Mashinasozlik Instituti “ Gumanitar fanlar ” kafedrasi dotsenti karimova@gmail.com,+998932534155

Andijon Mashinasozlik Instituti magistranti

E-mail: tursunoyturgunova7@gmail.com

Tel: +998994952552

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyoda yaratilgan sun’iy tillar, fan va texnika tilining inson hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan.



Kalit so’zlar: Inson ,tarix, sun’iy till, volapyuk, esperanto, ido, interling, tabiiy till ixtiro, fan texnika.

Аннотация . В данной статье анализируется значение созданных в мире искусственных языков, языка науки и техники в жизни человека.

Ключевые слова: Человек, история, искусственный язык, волапюк, эсперанто, идо, интерлингв, изобретение естественного языка, наука и техника.

Annotation This article analyzes the importance of artificial languages created in the world, the language of science and technology in human life.

Key words: Man, history, artificial language, Volapuk, Esperanto, Ido, Interlingu, invention of natural language, science and technology.

Insoniyat tarixida o'zaro ijtimoiy aloqalar rivojlanib borarkan, olimlar,yozuvchilar,ixtirochilar orasida yer yuzidagi barcha kishilar uchun tushunarli bo'lgan yagona tilni o'ylab topishga harakat qilib kelingan. Bizga tanish bo'lgan ingliz, ispan, rus va xitoy tillaridan tashqari, unchalik ma'lum bo'limgan ko'plab tillar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligidagi yuzlab odamlar so'zlashadi va ular sun'iy tillar deyiladi.Ushbu tillarni yaratish fikri ilk marta fransuz olimi R.Dekart va nemis olimi G.Leybnitslar tomonidan taklif qilingan.[1] O'n yettinchi va yigirmanchi asrlar oralig'ida mingga yaqin sun'iy tillar yaratilganiga qaramay, ulardan bir nechtafigina amalda qo'llangan, bularga volapyuk, esperanto, ido, interlingva larni misol qilib keltirish mumkin.[2]

Sun'iy tillar, tabiiy tillarni o'rnini bosuvchi tillar bo'lib, ular ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgandir. Ular qanday maqsadda foydalanilishi va tabiiy tillar bilan o'xshashligiga qarab turli xil turkumga bo'linadi: xalqaro yordamchi tillar, matematik yordamchi tillar, informatsion tillar.

Xalqaro yordamchi tillar ichida eng mashhur hisoblanuvchi Esperanto haqida batafsil ma'lumot berib o'tmoqchiman. Ushbu til loyihasi 1887 yilda varshavalik ko'z doktori Lyudvig Zamengof tomonidan taklif etillgan. Alifboda 28 ta harf mavjud bo'lib, harflar qanday yozilsa shunday talaffuz qilinib, rus va ispan tili alifbosiga o'xshab ketadi. Masalan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi "ha, yo'q" so'zlari: jes,ne deyiladi. Jo'nalish, o'rin-payt kelishiklar ma'nolarini ifodalashda, "v,na,dlya,ot,do" kabi old ko'rsatkichlardan foydalaniladi.Esperanto tilida 8 ta shakl va 33 ta so'z yasovchi qo'shimcha mavjud. Masalan, so'z oldidan keladigan "mal" qo'shimchasi, antonym ma'noni anglatadi: bona-yaxshi, malbonayomon, forta-kuchli, malforta-kuchsiz. Jins tushunchasi –in qo'shimchasi orqali farqlanadi: rarto-ota, rartino-ona, koko-xo'roz, kokino-tovuq, -ist qo'shimchasi shaxs otini hosil qiladi.[4]

Kanto -qo'shiq kuylash), kantisto-qo'shiqchi, -et kichraytirish qo'shimchasi: domo-uy, dometo-uycha,elefanto-fil, elefanito-filcha. Esperantoda urg'u doim oxiridan avvalgi unli tovushga tushadi. Masalan, timsoh-krokodilo, sentyabr-septembro. Esperantoda qo'sh undoshlar ishlatilmaydi, kollektiv-kolektivo, komissiya-komisiono. Har qanday ot turkumidagi so'z "o" (o') harfi bilan tugaydi, masalan: qoshiq-kulero, shanba-sabato, dengiz-maro. Sifat turkumidagi so'zlar esa "a" harfi bilan tugaydi, masalan, oq-blanka, qora-nidra, yangi-nova.Esperanto tilining boshqa sun'iy tillardan farqi shundaki, u ko'p jixatdan kamchiliksiz yaratilgan, shu sabbali ham yuz yildan ortiq vaqt davomida foydalanib kelinyapti va keng tarqalyapti.[5]



Sun’iy tilning keying turkumiga matematik yordamchi tillar mansub bo’lib, ularga matematik mantiq, lingvistika, kimyo, fizika va boshqa fanlarning ramziy (ramzlarga asoslangan) tillar tushuniladi. Bunday tillarning yaratilishi ham o’z tarixiy bosqichlariga ega: matematik ifodalardagi harfiy ramzlar Yevropada o’n oltinchi asrda qo’llanilgan; matematik mantiq tili o’n to’qqizinchi va yigirmanchi asrlarda, tilshunoslikning ramziy til unsurlari o’tgan asrning yigirmanchi va qirqinchi yillarida paydo bo’lgan[6].

Ushbu tillar koproq insoniyatni texnologiyalardan foydalanishni boshlagan davriga to’g’ri keladi. Fan va texnika tili yordamida foydalanuvchi ma’lumotlarni aniq belgilab olishi, ularni tizimga kiritishi va tizimdan ma’lumotlarni osonlik bilan topib olishi mumkin, chunki kerakli ma’lumot avtomatik tuzilgan lug’atlarda aks etadi. Bu til faqat mustaqil so’zlardan, lug’atdan iborat (grammatikasiz) til bo’lib, unda tushunchalar o’rtasidagi sintagmatik va paradigmatic munosabatlarni bildiruvchi grammatik vositalarga ham ega bo’ladi, grammatik so’z qo’shimchalaridan foydalanilmaydi. Quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: Arab raqamlari: 0, 5, 123.7; kasrlar: 1/4, 5/9, 2 1/3; o’zgaruvchilar a, b, c, x, y, z, ifodalar: 3x, x2, 4 + x; diagramma va visual elementlar : doira, burchak, uchburchak, matritsa, tensor; cheksizlik ∞ ; Pi : π ; ehtimoliy raqamlar :i, -i; va hokazo.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun’iy tillarni yaratishdan maqsad, turli tillarda so’zlashuvchi insonlarni birlashtirib, ularga tabiiy tillardan ko’ra samaraliroq muloqot va tarjima shaklini yaratib berish, ularga ma’lumotni tezroq yetkazish va uni osonroq tushunarli bo’lishini ta’minlab berishdan iborat. Agar sun’iy tillar kashf qilinmaganida, ayniqsa fan-texnika tili yaratilmaganida, hozirgi kunda biz osongina yechimini topa olayotgan masalalar ancha murakkab yo’llar orqali hal etilgan bo’ldi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. Нажимидинова Д. Ф. ОИЛА ТИНЧЛИГИ ЖАМИЯТ ФАРОВОНЛИГИ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 12. – №. 1. – С. 77-81.
4. Abduqayumovna K. M. INTERACTION OF OBJECT, SUBJECT AND SYNERGETIC CATEGORIES IN SCIENTIFIC WORK //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 25-29.
5. Каримова М. Improving technical philosophy and changing human thinking //O ‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022,[1/5] issn 2181-7324.



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th April, 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

- 6.Каримова М. А. ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИДА ЧОРВАЧИЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМЛАР //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 82-86.27.
- 7.Gulomjonovna N. D. Spiritual and Economic Factors of a Strong Family //Telematique. – 2023. – С. 7607–7611-7607–7611.
- 8.Каримова М. А., Нажимидинова Д. Ф. ФАРЗАНД ТУФИЛИШИ ВА БОЛА ТАРБИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАРДА ЗАРДУШТИЙЛИК ИЗЛАРИ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 12. – №. 1. – С. 69-76.
- 9.Нажимидинова Д .Ф. АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ТАЛАБАЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛИЯТИДАГИ ЎРНИ //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. –C.75-81
- 10.<https://www.encyclopedia.com/humanities/encyclopedias>



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings